

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Alisher Navoiy nomidagi  
Samarqand davlat universiteti**

**O'zbek filologiyasi fakulteti**

***O'zbek adabiyoti tarixi kafedrası***

***«O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi» fani***

***Mavzu: Nosiruddin Burxonuddin Rabg'uziyning “Qisasi  
Rabg'uziy” asarida nazmiy parchalarning ahamiyati***

***Kurs ishi***

***2012-2013 o'quv yili***

**Bajaruvchi: 2-kurs 02-guruh talabasi: Quljanova T.**

**Ilmiy rahbar: dots.G.Xoliqulova**

**Kurs ishi O'zbek adabiyoti tarixi kafedrası komissiyasida himoya  
qilindi va \_\_\_\_\_ ga baholandi. (Bayonnoma № \_\_\_\_\_ 2013)**

**Komissiya raisi: prof. D.Salohiy**

**Komissiya a'zolari: f.f.n. Xoliqulova G.**

**f.f.n., o'qit. I. Sulaymonov**

**Samarqand 2013-yil.**

# Reja :

I.Kirish. “Qisasi Rabg’uziy” asari va uning manbalari.

II. Asosiy qism:

- 1.She’riy parchalarning til xususiyatlari.
2. She’riy parchalarning asarda joylashish o’rni.
3. Janriy tasnif va qofiya.
4. G’azal janri va uning ilk namunalari tahlili.
5. Musammat va uning shakliy xillari.

III. Xulosa.

IV. Adabiyotlar ro’yxati.

O’tmish merosimizning nodir yodgorligi bo’lgan «Qisasi Rabg’uziy» asari va uning muallifi Nosiruddin Burhonuddin Rabg’uziy merosi xalqimiz tarixida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Rabg’uziyning ushbu asari yer yuzining paydo bo’lganidan boshlab so’nggi payg’ambar – Muhammad hayotiga doir bo’lgan voqealarni tasvirlar ekan, ularda kishilarni to’g’rilikka, komilikka, axloqan poklikka chaqirishi bilan yuksak ahamiyat kasb etadi. Rabg’uziy haqida yetarlicha

ma'lumot yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan yagona asari «Qisasi Rabg'uziy»da ba'zi ma'lumotlar mavjud. Undagi ma'lumotlar ham to'liq emas. Uning asl ismi Nosiruddin bo'lib, Xorazmning Rabotu O'g'uz degan joyida tug'ilgan. Asarining muqaddimasida otasi Burhonuddinning O'g'uz Rabotining qozisi bo'lganligini aytib o'tadi. Asarda o'zi haqida musulmonlarga xos kamtarinlik bilan: «...bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqlik, ko'p yozug'luk (yaxshiligi oz, gunohlari ko'p) Rabot O'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin...» deya ta'kidlaydi. “Rabg'uziy” so'zini prof. N.Mallayev «Raboti o'g'uz»ning birikuvidan kelib chiqqan deya fikr bildiradi. Rabg'uziy XIII asrning oxirlari va XIV asrning boshlarida yashagan xorazmlik shoirdir. Uning «Qisasi Rabg'uziy» asari o'zbek nasrining qadimiy namunasi. Bu asar islom dinini qabul qilgan mo'g'ul beklaridan biri bo'lgan Nosiruddin To'qbug'aning topshirig'i va homiyligida yozilgan. Asar hijriy 709 yil, milodiy 1309-1310 yil (ba'zi manbalarda 1311 yil) yaratilgan deb ko'rsatiladi. To'qbug'a Rabg'uziyga payg'ambarlar haqida asar yozishni topshiradi va natijada «Qisasi Rabg'uziy» yuzaga keladi. Bu asar “ Qisas ul-anbiyo”, “Qisas ul-anbiyoi turkiy” nomlari bilan ham mashhur bo'lgan. Asosan, payg'ambarlar hayotini hikoya qiluvchi bu asarning o'ziga xos yaratilish tarixi bor: Musulmon sharqida bu mavzuda ko'plab asarlar yaratilgan. Lekin asarda yozilishicha, ularning “ba'zisi mustaqim (to'g'ri, haqiqiy) bor, ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi (bir qanchasi) muqarrar (pucta, tugal) va bir onchasi mubattar (notugal) bor”. Shuning uchun han bek To'qbug'a adibning “o'qimoqg'a keraklik, o'rganmakka yarog'liq” O'tmish merosimizning nodir yodgorligi bo'lgan «Qisasi Rabg'uziy” asari va uning muallifi Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy merosi xalqimiz tarixida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Rabg'uziyning ushbu asari yer yuzining paydo bo'lganidan boshlab so'nggi payg'ambar – Muhammad hayotiga doir bo'lgan voqealarni tasvirlar ekan, ularda kishilarni to'g'rilikka, komilikka, axloqan poklikka chaqirishi bilan yuksak ahamiyat kasb etadi. Rabg'uziy haqida yetarlicha ma'lumot yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan yagona asari «Qisasi Rabg'uziy»da ba'zi ma'lumotlar mavjud. Undagi ma'lumotlar ham to'liq emas.

Uning asl ismi Nosiruddin bo'lib, Xorazmning Rabotu O'g'uz degan joyida tug'ilgan. Asarining muqaddimasida otasi Burhonuddin O'g'uz Rabotining qozisi bo'lganligini aytib o'tadi. Asarda o'zi haqida musulmonlarga xos kamtarinlik bilan: «...bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqlik, ko'p yozug'luk (yaxshiligi oz, gunohlari ko'p) Rabot O'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin...» deya ta'kidlaydi. “Rabg'uziy” so'zini prof. N.Mallayev «Raboti o'g'uz»ning birikuvidan kelib chiqqan deya fikr bildiradi. Rabg'uziy XIII asrning oxirlari va XIV asrning boshlarida yashagan xorazmlik shoirdir. Uning «Qisasi Rabg'uziy» asari o'zbek nasrining qadimiy namunasi. Bu asar islom dinini qabul qilgan mo'g'ul bekларidan biri bo'lgan Nosiruddin To'qbug'aning topshirig'i va homiyligida yozilgan. Asar hijriy 709 yil, melodiyy 1309-1310 yil (ba'zi manbalarda 1311 yil) yaratilgan deb ko'rsatiladi. To'qbug'a Rabg'uziyga payg'ambarlar haqida asar yozishni topshiradi va natijada «Qisasi Rabg'uziy» yuzaga keladi. Bu asar “ Qisas ul-anbiyo”, “Qisas ul-anbiyoi turkiy” nomlari bilan ham mashhur bo'lgan. Asosan, payg'ambarlar hayotini hikoya qiluvchi bu asarning o'ziga xos yaratilish tarixi bor: Musulmon sharqida bu mavzuda ko'plab asarlar yaratilgan. Lekin asarda yozilishicha, ularning “ba'zisi mustaqim (to'g'ri, haqiqiy) bor, ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi (bir qanchasi) muqarrar (pucta, tugal) va bir onchasi mubattar (notugal) bor”. Shuning uchun han bek To'qbug'a adibning “o'qimoqg'a keraklik, o'rganmakka yarog'liq” O'tmish merosimizning nodir yodgorligi bo'lgan «Qisasi Rabg'uziy» asari va uning muallifi Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy merosi xalqimiz tarixida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Rabg'uziyning ushbu asari yer yuzining paydo bo'lganidan boshlab so'nggi payg'ambar – Muhammad hayotiga doir bo'lgan voqealarni tasvirlar ekan, ularda kishilarni to'g'rilikka, komilikka, axloqan poklikka chaqirishi bilan yuksak ahamiyat kasb etadi. Rabg'uziy haqida yetarlicha ma'lumot yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan yagona asari «Qisasi Rabg'uziy»da ba'zi ma'lumotlar mavjud. Undagi ma'lumotlar ham to'liq emas. Uning asl ismi Nosiruddin bo'lib, Xorazmning Rabotu O'g'uz degan joyida tug'ilgan. Asarining muqaddimasida otasi Burhonuddin O'g'uz Rabotining

qozisi bo'lganligini aytib o'tadi. Asarda o'zi haqida musulmonlarga xos kamtarinlik bilan: «...bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqlik, ko'p yozug'luk (yaxshiligi oz, gunohlari ko'p) Rabot O'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin...» deya ta'kidlaydi. “Rabg'uziy” so'zini prof. N.Mallayev «Raboti o'g'uz»ning birikuvidan kelib chiqqan deya fikr bildiradi. Rabg'uziy XIII asrning oxirlari va XIV asrning boshlarida yashagan xorazmlik shoirdir. Uning «Qisasi Rabg'uziy» asari o'zbek nasrining qadimiy namunasi. Bu asar islom dinini qabul qilgan mo'g'ul bekларidan biri bo'lgan Nosiruddin To'qbug'aning topshirig'i va homiyligida yozilgan. Asar hijriy 709 yil, melodiyy 1309-1310 yil (ba'zi manbalarda 1311 yil) yaratilgan deb ko'rsatiladi. To'qbug'a Rabg'uziyga payg'ambarlar haqida asar yozishni topshiradi va natijada «Qisasi Rabg'uziy» yuzaga keladi. Bu asar “ Qisas ul-anbiyo”, “Qisas ul-anbiyoi turkiy” nomlari bilan ham mashhur bo'lgan. Asosan, payg'ambarlar hayotini hikoya qiluvchi bu asarning o'ziga xos yaratilish tarixi bor: Musulmon sharqida bu mavzuda ko'plab asarlar yaratilgan. Lekin asarda yozilishicha, ularning “ba'zisi mustaqim (to'g'ri, haqiqiy) bor, ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi (bir qanchasi) muqarrar (pucta, tugal) va bir onchasi mubattar (notugal) bor”. Shuning uchun han bek To'qbug'a adibning “o'qimoqg'a keraklik, o'rganmakka yarog'liq” kursisi, Sulaymon va Bilqis haqidagi, Yunus, Ilyos, Xizr, Luqmoni hakim, Iso, Iskandar haqidagi qissalar ham e'tiborlidir. Asarning katta qismi payg'ambarimiz Muhammad hayotlariga bag'ishlangan. Rabg'uziy asarida xalq og'zaki ijodining ham chuqur ta'siri seziladi. Masalan: Bani Isroil ularga 12 baquvvat, baland bo'yli kishilarni yuborishadi, bog'bon kelib ularning oltitasini bir yengiga, yana oltitasini ikkinchi yengiga solib oladi. Ularni qo'l- oyoqli qurtlar deb ataydilar. Yoki Muso payg'ambar hassasini yerga sanchsa mevali daraxt, dushmanga qarshi ilon, daryodan o'tishda ko'prik vazifasini bajaradi. Yoki Yusufning akasi Yahudo na'ra tortsa, Misr eli hushsiz yiqiladi. Rabg'uziy haqida gap ketganda uning she'riyati alohida ahamiyaga ega. Rabg'uziy mahoratli nosirgina emas, nozikta'b shoir hamdir. Chunki har bir qissa boshida yoki oxirida keltirilgan she'rlar bundan dalolat beradi. Ayrim g'azallar voqealar ichida ham beriladi. Bular Rabg'uziyning

turkiy aruz va barmoq vaznini yaxshi egallaganidan guvohlik beradi. Ushbu asarda 600 misra she'r o'rin olgan bo'lib, bular g'azal, ruboiy, qit'a, to'rtlik, qasida, musammat janrlarida bitilgan. Qissalar tarkibida berilgan o'zbekcha va arabcha she'rlar adibning nozikta'b zullisonayn shoir bo'lganligidan darak beradi. Misol qilib, Yusuf qissasi tarkibida keltirilgan arabcha va turkcha she'rlarga e'tibor qaratamiz.

Vo asafo ala firoqi qavmin

Va –lmudnu va-muznu va-rravasi

Kam tag'ayyara lana al-layali

Va kullu hamdin lana qulubu

Humu –lmasobihu va-lhusunu

Va-lxaylu va l'unsu va ssukunu

Hatta tavaffahum ulamanunu

Va kullu ma lana uyunu

(Tarjimasi: Taassuflar bo'lsin bir jamoaning firoqiga

Ular yo'l ko'rsatadurgan chiroqlar edi va himoya qiladigan qal'alar  
edi

Safardayu shaharda, bazmdayu razmda

Qanch –qancha tunlar tag'yir topdi to ularga o'lim  
kelguncha.

Qalblar aytgan har bir hamd

Va ko'zlar ko'rib turgan har bir shay)

Xuddi shu qissadagi turkiy she'ni keltiramiz, bu she'r orqali Yaqub payg'ambarning Yusufni o'ldirmoqchi bo'lgan o'n o'g'lining afsuslanish pushaymon bo'lish oqibatida yuzaga kelgan ruhiy kechinmalari tasvirlangan.

Bu biztek qatig' qindakim bor bu kun,

Uruldi orig' jong'a turluk tugun.

G'ariblikda erksiz tushub iylanib,

Essiz o'n qarindosh o'larmiz bu kun.<sup>1</sup>

Asar tarkibidagi she'rlarning jami ellik to'qqizta deb hisoblasak, ulardan qirqtasi turkcha, o'n to'qqiztasi arabchani tashkil etadi. Asarda arabcha she'rlarning uchrashi tabiiy hol. Chunki, asar Quroini karim va Hadisi shariflar tasirida yuzaga kelgan. Bu she'rlar asar mazmunini to'ldiradi, g'oyaviy maqsadni yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Asar badiiyati ham o'ziga xos. She'riy parchalardan tashqari juda ko'p o'rinlarda voqealar bayoni, holatlar tasvirida tashbeh, tanosub, tazod, tajnis takrir, jonlantirish kabi tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Xususan, sa'j (nasrdagi ichki qofiya) adibning sevimli badiiy vositasi ekanligi ko'zga tashlanadi. Muallif sa'jdan asosan ta'rif va tavsif o'rinlarida foydalanadi. Masalan, Idris alayhissalom ta'rifi: "...payg'ambar alayhissalom ul umri ukush, diyor ko'shish, Azroilg'a qotishg'an, rizvon birla yanashg'an, dunyodin qushdek uchg'an, tamug'g'a kirib chiqq'an, Sirotdin yashindek kechg'an, uchmoh qabug'in ochg'an, o'zi aziz, o'rni adiz arig' zotlig', Axnuh otlig' Idris yalovoch".<sup>2</sup> Asar tarkibidagi nazmiy parchalarning ahamiyatli jihati shundaki, bu she'riy parchalar janrlarning ilk ko'rinishlarini tashkil qilgan. Asarda g'azal, musammat, g'azal-marsiya janrlarining ilk ko'rinishlari uchraydi. Bahor vasfiga bag'ishlangan birinchi turkiy g'azal alohida ahamiyatga ega. G'azal shunday misralar bilan boshlanadi:

---

<sup>1</sup> Nosiruddin Rabg'uziy., Qisasi Rabg'uziy.1-kitob,-Toshkent.: Yozuvchi.,1990.,156-bet.

<sup>2</sup> Nosiruddin Rabg'uziy., Qisasi Rabg'uziy.1-kitob,-Toshkent.: Yozuvchi.,1990.,35-bet.

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro'zi,

Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi.<sup>3</sup>

So'ng olamning go'zal bir manzara kasb etgani, atrofning go'zalligi tavsiflanadi:

Kun kelu ming ko'rki ortib tirilur o'lmish jahon,

Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi.

Tasvirda jonlantirish, sifatlash va o'xshatishlar asosiy o'rin tutadi. Muhimi, ularda Rabg'uziyning tasavvur kuchi va badiiy mahorati ochiq ko'rinadi:

...O'rlasa bulutlari gulchirar bog'-u bo'ston,

Tol yig'ochlar yeng solishur o'ynayurtek qo'y-qo'zi.

...Lola sag'roqin icharda sayrar usrub sanduvach,

Turnalar un tortib o'tarda sakrashur baqlan, qo'zi.

Ko'kda o'ynar, qo'l solishur qug'u, g'oz, qil, qarlug'och,

Yerda yugurub juft olishur os, tiyin, kish, qunduzi.

Tol yig'ochlar minbarinda to'ti qush majlis tutar,

Qumri, bulbul muqri bo'lub un tuzar tun-kunduzi.

---

<sup>3</sup> Buz- muz.

...Huri ayn ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur,

Yoz uza mundog' g'azallar aymishdi Nosir Rabg'uziy.

O'zbek adabiyotidagi bu ilk g'azalda Rabg'uziy janrning barcha shakily-badiiy talablariga mukammal darajada rioya etgan. She'ning matla'sidan maqta'sigacha navro'z ta'rif-tavsifi aks ettiriladi. G'azalning qofiyalanishi bugungi qofiyalanish tizimiga to'liq javob beradi. Ya'ni , a-a, b-a, c-a, d-a tarzda. *Navro'zi, buzi, yuzi, yozi, tuzi, qo'y-qo'zi, juzi, qo'zi, qunduzi, yulduzi, Rabg'uziy* so'zlaridan tashkil topgan qofiyalar tizimi turkiy til tarovatini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lgan. Maqta'da ilk bor taxallus ishlatilgan. Vazn ham o'ynoqi bo'lib, g'azal uchun turkiy adabiyotda keyinchalik eng ko'p qo'llangan vazn- ramal tanlab olingan.

Kun ha-mal-ga \ kir-di er-sa, \ kel-di o-lam \ nav-ro'-zi,

- V - - \ - v - - \ - v - - \ - v

-

Fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun

Kech-di bah-man \ zam-ha-rir qish \ qol-ma-di qo-\ri, bu-zi

- V - - \ - v - - \ - v - - \ -

v -

Fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun

Ko'rinib turganidek, ramal bahrining rukni foilotun ohanglariga tayanadi. Bir bayt (ikki misra)dab u rukn sakkiz marta qo'llangani uchun musamman nomini oladi. "Musamman" arabcha so'z bo'lib , sakkiz degan ma'noni bildiradi. Oxirgi rukn avvalgilaridan qisqaroq, unda bir hijo kam. Ushbu shakl mahzuf deyiladi. Vaznning to'liq nomi ramali musammani mahzufdir.

G'azalning barcha baytlari o'zaro mantiqiy ip (navro'z) bilan bog'langan. Ana shu ichki bog'liqlik g'azal yaxlitligini ta'minlagan. Dastlabki bayt umumiy axborot berishga qaratilgan. Qishning o'rniga bahorning kelishi ko'rsatilgan. Bunda muallif munosabatining ochiq ifodalanishi e'tiborni tortadi. Bahorga nisbatan "olam navro'zi" ifodasi qo'llansa, qishga nisbatan "bahman" (ayoz, qahraton, izg'irin) "zamharir"(qirovli,qahraton,qattiqsovuq) sifatlashlari tanlangan. Keying baytlar bahorning xususiy jihatlarini tasvirlashni ko'zda tutadi. Dastlab dunyoning yangidan chiroy ochgani ("tirilur bu yer yuzi") qalamga olinadi.

Osmon va yerdagi o'zgarishlarni aks ettirish navbatdagi bayt qamroviga kiradi. Unda bulut va daraxtlarning o'ziga xos manzarasi ko'rsatiladi. *Lola ,bulbul, turna, , qo'zi* so'zlari bahorning turli belgilarni ifodalash vositasi bo'lgan. " Yer-osmon" zidligi asosida bahorning o'ziga xos tasvirini berish keyingi baytda ham davom etadi. Bahor osmonida qushlarning ko'payishi qug'u (oqqush), g'oz, qil(qilquyruq), qarlug'och(qaldirg'och) vositasida ko'rsatilsa, yerdagi jonivorlar harakatining jonlanishi os(oq suvsar), tiyin(olmaxon), kish (qunduzning bir turi), qunduz singari hayvonlar timsollari vositasida tasvirlangan.

Qadimgi turkiy tilda "yig'och", "og'och" so'zlari , asosan, "daraxt"tushunchasini ifodalagan. Navbatdagi baytda tilga olingan "tol yog'och minbarinda" (tol daraxtning shoxlarida) ifodasi xuddi shu ma'noni yuzaga chiqaradi. Bu baytda bir qator qushlar (to'ti, qumri, bulbul)ning xonishi – sayrashlari orqali bahor faslining tarovati yana bir bor ta'sirli yo'sinda tasvirlangan. Asar tarkibida o'ttiz ikkita g'azal xususiyatlariga mos keluvchi g'azal xarakteridagi she'rlar mavjud. Ularning orasida to'liq mukammal g'azal deb hisoblashimiz mumkin bo'lgan g'azallar ko'pchilikni tashkil qiladi. Asarda ayrim matla'siz, hamda maqta'siz baytlar ham uchraydi. Ular qofiyalanish tizimi va vazn jihatdan g'azal talablariga javob bo'ladi. Bunday xususiyat aksariyat arabcha she'rlarda uchraydi. G'azallarda , asosan, payg'ambarlar madh etilgan bo'lib, Odam, Ibrohim , Mustafo , Yaqub, Lut, Jirjis, Ilyos , Yunus, Sulaymon, Dovud, Idris, Nuh, Xud, Solih, Is'hoq, Yusuf va boshqa bir qancha paygambarlar g'azallar

g'oyasini tashkil qiladi. Ga'zallarda payg'ambarlarning qiyinchiliklari, kuch-qudrati, xususiyatlari, ichki his-tuyg'ulari kuylangan.

“Qisasi Rabg'uziy” da birinchi she'r –ilk marsiya o'rin olgan. Bu marsiyani Odam Ato o'g'li Hobilning o'limiga bag'ishlab aytadi. «Qissai Qobil va Hobil»da tasvirlanishicha, Qobil bilan Iqlimo, Hobil bilan Abudo tug'iladi. Iqlimo go'zal. Abudo ko'rksiz edi. Qobilga Abudo beriladigan bo'ldi, u ko'nmadi. Odam ularga qurbonlik qilishni, kimning qurbonligi qabul bo'lsa, Iqlimo berilishini aytdi. Hobilning qo'yi qabul bo'ldi. Qobil tosh bilan urib Hobilni o'ldirdi. Qarg'alarga qarab, Hobilni yerga qo'ydi. Odam ko'mish shundan qoldi. (30- 31- betlar). Asarda keltirilishicha, “ Odam birla Havvo telim yig'ladilar. Odam ta'ziyat tutub bu she'rni aydi. Yer yuzinda avval she'r ayg'an Odam erdi, ul she'r bu turur:

Tag'ayyarat ul biladu va man alayxa

Va vajhul arzi mug'ayyirun Masihu

Faajabahu iblis la'natullohi alayxa

Tag'ayyara kullu zi- lavnin va ta'min

Va qad bashashtil vajhil maluhu

Bi qatli Qobilin Hobilin axaxu

Fa yo asafa alal- vajxis –sabihi... ”<sup>4</sup>

“Qisasi Rabg'uziy” turk badiiy nasrining ilk namunalaridan biri sifatida adabiyotimizda o'ziga xos o'ringa ega. Asar tarkibida yuqorida ta'kidlaganimizdek, nazmiy parchalarning ilk ko'rinishlari ham asarning taixiy-badiiy-ilmiy qiymatini oshiradi. Shunday janrlardan biri musammat janri asar qimmatini yanada oshiradi. Musammat janrining ba'zi turlari ilk bor ushbu asarda uchraydi. Musammatlar ko'p misrali va ko'p qofiyali band sistemasidan

---

<sup>4</sup> Nosiruddin Rabg'uziy., Qisasi Rabg'uziy.1-kitob,-Toshkent.: Yozuvchi.,1990.,31-bet.

yuzaga keluvchi she'r shakllaridir. Yana ham aniqrog'I, g'azal tipida qofiyalanuvchi, har bir bandi 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 misrali bandlardan tashkil topgan she'riy shakllar turkumiga musammat deyiladi. Ularning har biri bandlardagi misralar soniga qarab musallas (uchlik), murabba' (to'rtlik), muxammas (beshlik), musaddas (oltilik), musabba' (yettilik), musamman (sakkizlik), mutassa' yoki tasne' (to'qqizlik), muashshar yoki mashru' (o'nlik) nomlari bilan ataladilar.<sup>5</sup>

Asar tarkibida musammat xarakteridagi she'rlarni jamlaganda, ularning quyidagi shakllari aniqlanadi:

**Musallas** (uchlik) xarakteridagi she'rlar – 2 ta.

- A) Nosiruddin To'qbug'abek madhi – 11 band (33 misra)
- B) Ismoil Alayhis-salom qissasi tarkibida – 3 band (9 misra)

“Qisasi Rabg'uziy” asarida turkiy musallasning ilk ko'rinishi uchraydi. Rabg'uziydan oldin musammatning bu shaklida hech kim ijod etmagan. Musallas shaklida ijod qilish bir muncha qiyinchilik tug'dirgan. Fikr to'liq va izchil bo'lishi qiyin bo'lgan. Shuning uchun bu shakl Rabg'uziydan keyin ham uchramaydi. Faqat XIX asrga kelib o'zbek shoirlaridan Uvaysiy ijodida musallas shaklining go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin. Rabg'uziy ijodidagi musallas bu shaklning ilk mukammal ko'rinishi hisoblanadi. Asardagi Nosriddun To'qbug'abek ta'rifi misolida buni ko'rishimiz mumkin.

Ilhoq umul tuzun qiliq

Biliq arig' haddin chiqa

Ko'kdin adizrak himmati

---

<sup>5</sup> R.Orzibekov., O'zbek lirik she'riyati janrlari.,-Toshkent.: Fan., 2006., 70-71-betlar.

Mo'risi beklik dinida

So'rar ani yulnub yaqo

Qizg'anchi uqbo milkati

Asli mo'g'ul erkan qo'nub

Islom uchun tutti yaqo

Bo'ldi Rasulning ummati

Toat qilur tun-kunduzun

Olnur saboq mushafqa baqo

“Qur'on” o'qumoq odati

Tasbih evurdsa xushlanib

Injulanur yoshi aqo

Eshitilsa “Qur'on” oyati

Erardi yavloq telim

Tuz so'zlayur so'zni uqo

Ortug' yarog'lig' siyrati

Rabdin ato bo'lub anga

Haq bermishi qutlug' baqo

Ko'rkluk sifatlig' surati

Ezgu qiliq birla yurub

Do'st qizg'anur dushman baqo

Ortar qamug'din hurmati

Kunduz o'qur, tunda qo'par

Toat qilur kirur suqo

Arslon mengizlik savlati

Yoshi kichik yo'ni ulug'

Zoti orig' bek To'qbo'g'a

Ul Nosiruddin kunyati

El oshasun, yuz yashasun

Bo'lub muti mavlosig'a

Mundin ziyoda qurbati

Musallasning qofiyalanishi ham o'ziga xos. a-b-c, d-e-c, f-e-c, g-e-c, h-e-c, i-e-c, j-e-c, k-e-c, l-e-c, m-e-c, n-e-c tarzda. Uvaysiyda musallasning qofiyalanishi a-a-a, b-b-b, c-c-c shaklda. Hozirgi kunda esa qofiya biroz farqli bo'lib, a-a-b, c-c-b, d-d-b tarzda qofiyalangan shakllarini ko'rishimiz mumkin. Asar tarkibidagi ikkinchi musallasning qofiyasi ham birinchisidan farq qiladi. Bu borada aniqlikka erishish qiyin. Chunki bu shakllarda Rabg'uziydan oldin ijod qilinmagan. Malum bir qofiyalanish tizimi ham shakllanmagan edi. Qofiyalanishning har xilligini bu shaklning ilk ko'rinishlari deya izohlashimiz mumkin. Keying musallas qofiyasi quyidagicha :

Sodiq ul- va'd atanibon va'dasin qildi vafo,

Tepti yerga ikki azoqin, topti yerda bir qurug',

Bo'ldi zamzamning suvini, bo'ldi illatg'a shifo.

Ka'baning toshin tashib qurbon qilg'an ul Zabih.

Tegrasinda tog' tanuqlar Marva erdi ham Safo.

Xalq aro ortuq bag'irsoq erdi mavlog'a muti'.

O'zgalarga vofiy erkin , o'ziga tegdi jafo,

Tug'maduq erdi onadin tug'di yolg'iz bir o'g'ul.

Tug'madi andin yalovoch yolg'iz erdi Mustafo.

**a-b-a, c-a-c, a-d-a** tarzda. Bu kabi qofiyalanish zamonaviy adabiyotda Mirmuhsinning “ Xat yozaman ” she’ri tarkibida uchraydi.<sup>6</sup>

**Murabba’** (to’rtlik) xarakteridagi she’rlar—10 ta arabcha, 8 turkcha (bular bir banddan iborat, murabba’ning ilk ko’rinishlari bo’lishi mumkin ). Musammatning bu shakli eng qadimiy she’riy janrlardan hisoblanadi. Ilk turkiy murabba’ she’rlar “Devoni lug’otit tuk” da marosim, mehnat qo’shiqlari tarzida ko’ringan bo’lsa, “Qutadg’u bilig” va “Hibatul haqoyiq” da pandnomalar, Yassaviy ijodida hikmatlar shaklida nomoyon bo’lgan. Murabba’ haqida so’z ketganda, yuqoridagi asarlar haqida fikr bildiriladi,uning badiiy xususiyatlari izohlanadi. Bular qatoriga “Qisasi Rabg’uziy” asari kiritilmaydi. Lekin bu shaklning go’zal namunalari yaratilishiga asos bo’lgan xomaki ko’rinishlari bu asarda ham uchraydi. Asar tarkibidagi to’rtliklar arab va turkiy tilda yozilgan. Ularning qofiyalanishi turlicha:

- **a-a-a-b;**

- **a-a-b-a;**

- **a-a-a-a;**

- **a-b-c-d.**

Bu ko’nglim murodg’a tekinmak tilar,

Telim xalqlar aro o’kunmak tilar.

Kun, oy sajda qilg’ay arig’ yuzga man,

Bu kun otdin inib yukunmak tilar.

Yoki

Ko’z ko’rgani jamol ul,

Sevmak ani halol ul.

---

<sup>6</sup> Qarang: Adabiy tur va janrlar.,-Toshkent.: Fan., 1992., 218-bet.

Andog' jamol ko'rubon,

Kim sevmasa vabol ul.

Asardagi to'rtliklar murabba' shaklining shakllanishiga asos bo'la olgan desak xato bo'lmaydi.

**Musaddas** (oltilik) xarakteridagi she'rlar—3 ta (arabcha bandlar bir banddan iborat). Asar tarkibidagi Odam safiy alayhissalom qissasida bu shaklni yaqqol ko'rish mumkin.

Nafsat tuqa al mushtara

Val mushtari rabbul vara

Va junanuxu asmanuxu

Val mustafa gulaluxu

Lakin sakkaku Tavratu

Injilu, Zaburu, Turkanuxu

Buning qofiyalanishi a-a-b-b-b-b tarzda. Alisher Navoiyning ijodida a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a (“Jonim o'rtarg'a ul”), Abdulla Avloniy ijodida a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a (“Turkiston tuprog'ina xitob”) tarzda qofiyalangan musammatlarni uchratamiz. Arabcha yozilgan bu misralar musaddas shakli xususiyatlariga to'liq javob bermaydi. Chunki bandlar soni bir nechtani tashkil etishi lozim. Lekin qofiyalanishi jihatidan oltilik shakli qofiyalanishiga mos keladi. Qofiyalanish quyidagicha:

A) a-a-a-a-a-a;

B) a-a-b-b-b-b;

C) a-a-a-a-b-a.

**Musamman** (sakkizlik) xarakteridagi she'rlar—1ta ( bir band-sakkiz misra). Asar tarkibidagi quyidagi band musamman xarakteriga ega:

Zuhra, qamar shikorimiz,

Qirg'iz, xitoy tavorimiz,

Yugurur kizik yiporimiz.

Yinju, gavhar nigorimiz.

Sanchishmag'a nek sevorimiz,

Qo'nindaqi qo'norimiz

Sanchishmag'a ormiz

Burningdagi mahorimiz.

Bandning qofiyalanishi **a-a-a-a-a-a-a-a** tarzda. Asar tarkibidagi bu musammansifat band ham murabba' , muxammas, musaddas kabi bir banddan iborat. Nazmiy parchalarning bu ko'rinishlarini bandlar soni to'g'ri kelmaganligi uchun musammat deya to'liq e'tirof etolmaymiz. Vazn va qofiya orqali aniqlaganda esa, musammatga o'xshash. Shu bois, asar tarkibidagi bu she'riy parchalarni musammatlarning ilk ko'rinishlari deb hisoblashimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari adabiyotimiz tarixida o'ziga xos o'ringa ega hisoblanadi. Asar o'zining ma'rifiy – tarbiyaviy hamda badiiy- estetik ahamiyati bilan hozirgi avlodlar ma'naviy kamoloti uchun ham qadrlidir. Qissalar mavzu jihatdan rang-barang. Olamdagi butun mavjudot egasi bo'lgan Ollohni ulug'lash, payg'ambar hayotiga doir lavhalarni eslash, kamtarinlik va takabburlik, ota-ona va farzand munosabatlari, vatan va mehnatsevarlik, erk va adolat, do'stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik kabilar shular jumlasidandir. Asarda shunday bir jumla borki, u asar mavzusini aniqlash imkonini beradi:

«Dunyoga boring, menga toat qiling, ma'siyatdan yig'iling, qon to'kmang, xamr ichmang, xalq orasida ko'ni hukm qiling, zino qilmang, xiyonat qilmang». Ya'ni inson Ollohga toat qilsa, hamisha uning yodi bilan yashasa, oxiratini o'ylasa yomon ishlardan saqlanadi, o'zidagi yomon unsur va illatlardan qutilishga harakat qiladi.«Ma'siyatda yig'iling»-gunohdan saqlaning degani. Gunoh va savob tushunchasi asarda ko'p tilga olinadi. «Ko'ni hukm qiling»-bu nasihat amaldorlarga taalluqli bo'lib, har ishda adolatli, to'g'ri hukm qilish zarurligi ta'kidlangan. Kuchsizlarga ozor yetkazmaslik va inson shahvoniy hislarga berilmasligi, bu yo'lda yurganlarga sharmandalik, yuzi qarolik, azob-uqubat yetishi aytiladi. Islomda xamr (aroq) ichish man qilinadi. Chunki u ko'p yomon ishlarga sabab bo'ladi. Qon to'kish, besabab birovni o'ldirish ham islomda qoralanadi. Omonatga xiyonat qilmaslik olijanob fazilat. Adabiyotning vazifasi komil insonni tarbiyalashdan iborat. Har bir asar insonlarni yaxshilikka, sabr- toqat va baxtga yetaklashi lozim. Shu qatorda, "Qisasi Rabg'uziy" asari o'zining ma'rifiy – tarbiyaviy hamda badiiy- estetik ahamiyati bilan hozirgi avlodlar ma'naviy kamoloti uchun ham qadrlidir. Shu o'rinda, prezidentimiz I.A.Kaimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlashimiz joiz.

“ Bizning o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadimiz ulug‘ zotlarning hayot yo‘li va qoldirgan buyuk merosini to‘liq tasvirlash emas, balki, ularning eng buyuk nomoyondalari timsolida ma‘rifat , ilm-fan, madaniyat , din kabi sohalarning barchasini o‘zida uyg‘unlashtirgan xalqimizning ma‘naviy olami naqadar boy va rang- barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir”.<sup>7</sup> Demak , biz o‘tmishimizni o‘rganishimiz , tariximizni tiklashimiz, undan o‘rnak , ibrat olishimiz, asosiysi kelajak avlodlarga bus-butun holda yetkazishimiz kerak. Adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan asarlardan biri Nosiruddin Burhoniddun Rabg‘uziy va uning adabiy merosini o‘rganish, o‘rganilgan jihatlarini to‘ldirish, asrab-avaylash bizning vazifamizdir.

---

<sup>7</sup> Karimovl.A., Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.,-Toshkent, 2011, 44-bet.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat. 2011. 176 b.
2. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob. -Toshkent: Yozuvchi. 240 b.
3. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. -Toshkent: Yozuvchi. 240 b.
4. Adabiy tur va janrlar. -Toshkent: Fan. 1992.
5. A. Taroziy. Funun ul-balog'a. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2002-2003 y.
6. T. Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent. O'zbekiston. 2002 y.